

PAPER

O'QUVCHILARDA MEHNAT TA'LIMI ORQALI UMUMMEHNAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Rahmonova Zaynabxon^{1,*} and Yo'ldoshboyeva Irodaxon²

^{1,2}ndQo'qon davlat universiteti Texnologik ta'lim 1– kurs talabalari

*boymurodovaferuza555@gmail.com, zarinamuxtorova05@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada o'quvchilarda mehnat ta'limi orqali umummehnat ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni Yangi O'zbekiston oliy ta'lim tizimi islohotlari kontekstida tahlil etilgan. O'quvchilarda do'stona munosabat, mas'uliyatlilik, o'zini baholash, tanqidiy fikrlash, mehnat madaniyati, xalq hunarmandchiligi ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy uslublari ochib berilgan. Oliy ta'limdagi dual tizim, STEAM va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida mehnat ta'limi darslarini tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Key words: Yangi O'zbekiston, oliy ta'lim islohotlari, mehnat ta'limi, umummehnat ko'nikmalari, xalq hunarmandchiligi, dual ta'lim, STEAM, tanqidiy fikrlash, o'zini baholash, mehnat madaniyati, integratsiya, kasbiy tayyorgarlik.

Kirish

Yangi O'zbekiston davrida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar yoshlarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Oliy ta'limdagi kredit–modul tizimi, kompetensiyaviy yondashuvlar maktab ta'limida mehnatga tayyorlash jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Ushbu maqolada mehnat ta'limi mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda mas'uliyatlilik, hamkorlikda ishlash, o'zini baholash va mehnat madaniyati ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari o'rganiladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va oliy ta'lim tizimi islohotlari yoshlarning kasbiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mehnat ta'limi maktab bosqichidan boshlab o'quvchilarni mas'uliyat, hamkorlik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash kabi hayotiy ko'nikmalarga o'rgatish orqali oliy ta'limdagi zamonaviy yondashuvlarga tayyorlaydi. for students in Uzbekistan.

Maqsad

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda hayotiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo'naltirish, oliy ta'limdagi amaliy yondashuvlar bilan integratsiyalashgan modelni ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot pedagogik kuzatuv, faoliyat tahlili, so'rovnoma va xalqaro tajribalarni o'rganish asosida olib borildi. Normativ-huquqiy hujjatlar (Taraqqiyot strategiyasi, Oliy ta'lim konsepsiyasi) asosida mehnat talimining zamonaviy metodlari tahlil qilindi.

Natijalar

Mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi, bir-birlariga beg'araz yordam ko'rsatishi va hamkorlikda ishlash malakalarini egallaydi. Bu jarayon oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, soft skills rivojlantirish kabi islohotlar bilan uzviy bog'liqdir. O'qituvchi bu munosabatlarning rivojlanishini diqqat bilan kuzatadi va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida boshqaradi. Yangi O'zbekiston ta'lim strategiyasi mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishda startup loyihalar, dual ta'lim va xalqaro standartlarni joriy qilishni ko'zda tutadi.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi va bir-birlariga beg'araz yordam ko'rsatishi, hamkorlikda ishlashi, ijrochilik, javobgarlik, mas'uliyatlilik, o'zaro talabchanlik va ish yuzasidan tanqidiy munosabatlarga odatlanadilar. O'qituvchi, bu munosabatlarning

kamol topishini va rivojlanishini diqqat bilan kuzatishi va ularni odob-axloq doirasida toʻgʻri yoʻnaltirishi lozim. Tarbiya natijalari mashgʻulotlarning mazmunigagina bogʻliq boʻlmay, balki, ularning tashkil qilinishi va oʻquvchilar ishlarini nazorat qilinishiga ham bogʻliqdir.

Oʻquvchilar koʻnikmalarining shakllanishini bosqichma-bosqich olib borish va mustahkamlash lozim. Mashgʻulotlar jarayonida shunday holatlar ham boʻladiki, oʻquvchi birinchi tayyorlangan buyumi talab darajasida boʻlmasa oʻziga-oʻzi "mening bajargan ishimdan hech nima chiqmayapti" deb hisoblab, ishning sifatli bajarilishiga eʼtiborsiz qaraydi. Baʼzi hollarda esa, birinchi muvaffaqiyatsizlikning salbiy taʼsirlariga, ularning ota-onalari ham sababchi boʻladi. Ota-onalar oʻz farzandlarini jismoniy va ijodiy mehnatga qobiliyatsiz deb oʻylaydilar va oʻzlarining asoslanmagan taxminlarini aytadilar.

Shu oʻrinda, ular oʻz farzandlarining imkoniyati va qobiliyatlarini toʻgʻri baholashlariga hamda oʻqituvchi va boshqa mutaxassislariga halal beradilar. Shu sababli, oʻqituvchi bunday hollarda, oʻzining ilmiy psixologik, pedagogik va kasbiy jihatdan asoslangan tahlillariga tayanishi lozim.

Oʻquvchilarda oʻzini-oʻzi tanqidiy baholash va kamchiliklarga nisbatan murosasiz boʻlish hislarini tarbiyalaydi. Unda, oʻqituvchi tayyor buyumni tekshirib koʻradi va uni oʻquvchilarning oʻzlariga mustaqil ravishda baholashni taklif qiladi.

Ilgʻor oʻqituvchilar ish tajribalari bunday usul muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Oʻquvchilar tayyorlangan buyumlarning sifatini aniqlashga doir muntazam mashq qilishlari, ularda oʻzini-oʻzi nazorat qilish koʻnikmalari, oʻzini-oʻzi mehnatini tanqidiy baholash hissining shakllanishiga yordam beradi. Buning uchun, oʻqituvchi-murabbiy dam olish tanaffuslarini vaqtida, mashgʻulotlar yakunida, ish natijalari tahlilidan keyin, oʻquvchilarga mehnat ilgʻorlari, fidoyilari foydalanayotgan usullar haqida gapirib berishi kerak boʻladi. Bunday suhbatlar uchun taniqli ustalar hayotini namuna qilib koʻrsatish maʼqul hisoblanadi. Chunki, bozor munosabatlarida faqat sifati yuqori, chiroyli, mustahkam qilib tayyorlangan buyumlarga raqobatbardosh boʻla oladi. Hozirgi zamon sharoitida ishlab chiqarish sohasining kengayishi, xoʻjalik munosabatlarining murakkablashuvi, fan-texnika rivojining jadallashishi tufayli ish vaqtining har bir daqiqasi gʻanimatdir.

Shunday ekan, ichki tartib-qoidalarga, mehnat intizomiga qatʼiy amal qilish zarurligini maktab taʼlim-tarbiyasidan boshlash kerak boʻladi. Buning uchun, mehnat taʼlimi jarayonida qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Bunda, oʻquvchilarga tushuntirish, ishontirish, ragʻbatlantirish, namuna koʻrsatish kabi metodlaridan foydalanib, oʻqitish bilan birga ularning ishlariga yuqori talabchanlik bilan yondashish ham kerak boʻladi. Oʻquvchilarning oʻzaro munosabatlarida chetlashishlar boʻlganda, ijobiy misollar bilan u yoki bu hollarda oʻzini qanday tutishi kerakligini tushuntirish kerak boʻladi. Oʻquvchilar oʻqituvchining tizimli va qatʼiy talablarini bajarish natijasida, ular turli qoidalar va ish usullari aniq va ongli bajarishga asta-sekin koʻnikadilar. Ular, ish maromini saqlashga, ish oʻrnini namunali tutishga, asbob-uskunalarini ehtiyot qilishga odatlanadilar. Oʻquvchilar mustaqil mehnat va turmushga tayyorlashning muhim shartlaridan biri, bu intizomni yoʻlga qoʻyish va uni asta-sekin saqlashga erishib borishdir. Oʻquvchilarga nisbatan doimiy izchil talabchanlik koʻrsatishda, oʻqituvchining muntazam irodasi boʻlmogʻi lozim.

Oʻquvchilarda jamiyat va shaxslar mulkiga gʻamxoʻrlik munosabatlarini tarbiyalash, ongli munosabatda boʻlish, ularda ijtimoiy va shaxsiy mulkka nisbatan tejamkorlik munosabatini shakllantirish lozim. Shuningdek, ular mehnat kishilarini hurmat qilishi, oʻz irodasi va xarakterini tarbiyalashi muhim oʻrin tutadi. Oʻquvchilarda ijtimoiy mulkka nisbatan ongli munosabatni tarbiyalashning taʼsirchan usullaridan biri, ularni unumli mehnat jihozlari va asbob-uskunalarini taʼmirlashga jalb qilishdan iboratdir. Oʻquvchilarni turli materiallarni tejamkorlik bilan saqlashga, asbob-uskuna, ish kiyimlari kabilarni ehtiyot qilishga

oʻrgatish hamda uning muomala odobi, tartib-intizomi va yuqori mehnat madaniyatini tarbiyalash lozim. Oʻquvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida yuqori saviyadagi mehnat madaniyatini tarbiyalash, oʻqituvchi-murabbiyning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Oʻquvchilarda mehnat goʻzalligi, kishilarning oʻzaro munosabatlarini chuqur va har tomonlama idrok qilishini doimiy va izchil ravishda tarbiyalab borishi kerak boʻladi. Mehnatning nafisligi oddiy buyumlar tayyorlashdan boshlanadi va bevosita mehnat jarayonida hamda uning natijalarida namoyon boʻladi. Oʻqituvchi dars va darsdan tashqari mashgʻulotlar jarayonida yaxshi tayyorlangan hunarmandchilik buyumining goʻzalligi, detallarga ishlov berishning toʻgʻriligi hamda oʻquvchi mehnat harakatlarining aniqligini doimo taʼkidlab turishi kerak. Oʻqituvchi oʻquvchilar bilan oʻtkaziladigan suhbatlarda, halol mehnat bizning jamiyatimizda yashashning asosiy mazmuniga aylanishi lozimligini uqtirishi, ruhlantirishi va bu ularning ijodiy mehnat qilish koʻnikmasini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bizning jamiyatimizda mehnat goʻzalligi maʼnaviy va moddiy ragʻbatlantirish bilan uzviy bogʻlangan.

Yuksak mehnat madaniyati mehnat kishilarining ajralmas sifatidir. Ushbu jarayonni oʻquvchilarga mehnat taʼlimi va boshqa umumtaʼlim fanlarini oʻqitish orqali tarbiyalab borish lozim. Mehnat madaniyati tushunchasiga mehnat shart-sharoitlari, goʻzalligi, qulayligi, mehnat jarayoni, muomala madaniyati va boshqalar kiradi. Chiroyli va qulay asbob-uskuna bilan tayyorlangan buyumlarning yuqori sifatli boʻlishi, undan foydalanish qulayligi, pishiqligi, mustahkamligi va tayyorlangan buyumning goʻzalligi insonlarga estetik zavq berishi qanoatlantirishi kerak. Asbob-uskunalar har doim sozlangan va ishga shay boʻlishi, mashgʻulotlarga oʻquvchilar qulay maxsus ish kiyimlarini kiyib kelishlarini kichik maktab yoshidanoq tarbiyalab borish talab etiladi.

Mehnat taʼlimi mashgʻulotlarining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, taʼlim-tarbiya tizimida xalq hunarmandchiligi sohalaridan foydalanish uchun eng maqbul mashgʻulotlar turkumi ushbu mashgʻulotlar hisoblanadi. Chunki, xalq hunarmandchiligi sohalarini bajarishda asosiy mashgʻulotlar qoʻl mehnati orqali amalga oshiriladi. Turli materiallarni ishlov berishga tayyorlash, materiallarga issiq va sovuq ishlov berish, kesish va bukish ishlari, rejalar, oʻlchash, pardozlash, silliqlash, jilvirlash, boʻyash, buyumlarni isteʼmolga tayyorlash kabi mashgʻulotlarning asosiy qismi xalq hunarmandchiligi sohalarida qoʻl mehnati bilan bajariladi.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini oʻrganishda mehnat mashgʻulotlari qoʻlda va qoʻl asboblari bilan bajariladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat taʼlimi mashgʻulotlarining samaradorligini oshirish uchun oʻquvchilar mehnati xolis baholanishi lozim. Xalq hunarmandchiligi sohalarini oʻrganishga asoslangan mehnat taʼlimi mashgʻulotlari anʼanaviy mehnat taʼlimi mashgʻulotlariga nisbatan taqqoslanganda moddiy, xom ashyo taʼminoti koʻpincha mahalliy materiallardan foydalanishi hisobiga boʻladi. Bu turkumdagi mashgʻulotlar oʻqitilishi jihatidan boshqa umumtaʼlim fanlariga nisbatan olib qaralganda, oʻzining amaliyligi va ishlab chiqarishga moʻljallanganligi bilan ajralib turadi.

Mehnat taʼlimi fani boshqa oʻquv fanlaridan oʻzining mujassamlangan fan ekanligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, ushbu taʼlimni tashkil etish jarayonida oʻquvchilar umumtaʼlim fanlaridan olgan bilimlarini keng koʻlamda qoʻllaydilar. Bundan tashqari, ushbu taʼlimning oʻzi ham, oʻz tizimida bir qancha soha (turli materiallarga ishlov berish, qishloq xoʻjaligi, sanoat, pazandachilik, gazlamashunoslik va boshqa) larni birlashtiradi. Ushbu sohalarining har biri esa, bir-biriga oʻxshamagan turli xil ishlab chiqarish faoliyati sohalaridan hisoblanadi. Yoshlarning mehnat taʼlimi va kasbga yoʻnaltirish ishlarini tashkil etish bilan shugʻullanadigan oʻqituvchilar, oʻquvchilar, murabbiylar, rahbarlar va boshqa mutasaddilar ushbu mashgʻulotlarning oʻziga

xosligini yaxshi farqlashlari lozim bo'ladi.

Xulosa

Yangi O'zbekiston oliy ta'lim islohotlari bilan uzviy bog'langan holda, maktab mehnat ta'limida o'quvchilarning umummehnat va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish konseptual model sifatida taklif etildi. Bu model o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim poydevor bo'ladi. Yangi O'zbekiston oliy ta'lim islohotlari bilan bog'liq holda mehnat ta'limi o'quvchilarda nafaqat kasbiy ko'nikmalar, balki ijodiy fikrlash, mas'uliyatlilik, jamiyat va shaxsiy mulkka hurmat, samaradorlik, o'zini baholash va mehnat madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi orqali oliy ta'limga kelayotgan yoshlar raqobatbardosh, ijtimoiy faollikka tayyor bo'lgan shaxs sifatida shakllanadi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida”gi Farmoni (2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida”gi Farmoni / O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2004. – № 21. – 11-22 b.
4. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. Toshkent. “O'qituvchi”, 2002. – 207 b.
5. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 56 b.
6. Butaev, A. A., Isakova, Z. R., Zaparov, A. (2021). THE METHODS OF DEVELOPING MODERN TECHNOLOGY SKILLS AMONG GENERAL SECONDARY SCHOOL PUPILS. Экономика и социум, (2-1), 112-114.
7. Zaparov, A., Rakhmonov, K., Isakova, Z. (2021). Modular Teaching Technology In Technical Sciences Application Methodology. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 349-355.
8. Зухра Исакова (2018) МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире. (12-4) 59-63